



**FILOLOG TALABALARDA YOZMA TARJIMA
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA MODUL
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASINING O'RNI**

Saydaliyeva Nigora Faxritdinovna

O'qituvchi, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

E-mail: sonyang@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozma tarjima kompetensiyasini samarali shakllantirishda modul pedagogik texnologiyasining o'рни va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Unda an'anaviy o'qitish metodlari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlarning, xususan modul tizimining tarjima jarayonidagi samaradorligi yoritilgan. Modul pedagogik texnologiyasining mazmuni, tuzilishi, asosiy xususiyatlari hamda uning individuallashtirish, moslashuvchanlik va bosqichlilik kabi afzalliklari asoslab berilgan. Shuningdek, P.A. Yutsyavichene, N.E. Kachura, M.Yu. Oleshkov, A.V. Aganov va E.I. Ananyeva kabi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, modul yondashuvining tarjima kompetensiyasini rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida modul texnologiyasiga asoslangan yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, tarjima jarayonini tahlil qilish, ekvivalentlikni aniqlash va amaliy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: modul pedagogik texnologiya, yozma tarjima kompetensiyasi, innovatsion yondashuv, filologik ta'lim, tarjima metodikasi, individuallashtirish, didaktik modul, o'quv elementlari, kompetensiyaviy yondashuv, tarjima ko'nikmalari, moslashuvchanlik, bosqichlilik, pedagogik texnologiyalar.



Yozma tarjima kompetensiyasi jarayonini samarali tashkil etish uchun nafaqat an'anaviy metodlar, balki innovatsion yondashuvlar, shu jumladan modul pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Bu uslubiy yondashuv talabalarda tarjima ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish, tafakkur faolligini oshirish va amaliy tarjima malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, modul pedagogik texnologiyasi nafaqat o'quv jarayonini tizimli tashkil etadi, balki har bir talabaga o'z bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va intellektual salohiyatiga mos individual yo'nalishda ishlash imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida tarjima kompetensiyasining shakllanishida yangi sifat bosqichlarini yuzaga keltiradi.

O'zining mazmuniga ko'ra, modul pedagogik texnologiyasi — bu o'qitish jarayonini tematik bloklar orqali tashkil etuvchi, har bir bosqichda aniq natijaga yo'naltirilgan yondashuvdir. Yuqorida qayd etilganidek, P.A. Yutsyavichene modulni “ta'lim mazmuni va uni egallash texnologiyasi yagona didaktik birlikda uyg'unlashgan tizim” sifatida ta'riflaydi .

Modul pedagogik texnologiyasi ilk bor AQSh va Janubiy Yevropa mamlakatlarida amaliyotga joriy etilgan bo'lib, u ta'lim jarayonida o'quv materiallarini tizimli va bosqichli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida shakllangan. Bugungi kunda tarjimonlarni tayyorlashda ushbu texnologiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, modul asosidagi o'quv dasturlar orqali xorijiy til va tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich, mustaqil hamda faol yondashuv asosida shakllantirish imkoni yaratilmoqda.

“Modul” termini lotincha “modulus” so'zidan olingan bo'lib, u “o'lchov”, “miqdor” yoki “uslub” ma'nolarini anglatadi. Pedagogikada esa modul o'quv mazmuni va uni egallash texnologiyasi integratsiyalashgan funksional birlik sifatida



izohlanadi. Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, modul pedagogik texnologiyasi xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida nafaqat didaktik aniqlik va bosqichlilikni, balki tarjima nazariyasi va amaliyotining muhim elementlarini ham samarali tarzda joriy qilishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida modul texnologiyasi P.A.Yutsayevichene, G.N.Saltovskaya, N.P. Babaniyazova, P.I. Tretyakov, I.B. Sennovskiy, Yu.B. Kuzmenkova, Ya.V. Borovikova, M.A. Choshanov, M.Yu. Oleshkov, A.V. Aganov va hammualliflari, E.I. Ananyeva, kabi olimlarning tadqiqot ilmiy ishlarida, didaktika, lingvodidaktika, psixologiya va metodika nuqtai nazaridan tavsiflanilgan .

P.A.Yutsayevichene fikriga ko'ra, "modul pedagogik texnologiyasida talabalarni o'qitish jarayonida modular tarkibi mustaqil o'zlashtiriladi va tugallangan bo'ladi, bir vaqtda bu modullar axborotlar banki hisoblanib, ular ta'lim jarayonida subyekt va subyekt aloqalari tarzida o'qituvchi va talabalar o'rtasida muloqotga kirishadi. Talabalarning tilni qay darajada bilishlari yuzaga chiqadi. Aynan talabalarni o'qitish jarayonida modul pedagogik texnologiyasi bilan uyg'un holatda bo'lib, ular birga amalga oshadi .

Modul tizimi quyidagi texnologik yondashuvlar bilan birga shakllanadi:

- ✓ modul tizimi avvalo ta'lim jarayonida oldindan proyektlangan bo'ladi;
- ✓ har bir fan ta'lim jarayonida didaktik modular asosida tashkil qilinadi, har bir modul metodik boshqaruv asosida rivojlanadi;
- ✓ o'quv qo'llanma asosida har bir modulni o'rganish talabaning bilimlari va to'plagan ma'lumotlari bilan vujudga keladi .

Boshqa tadqiqotchi N.E. Kachuraning ta'kidlashicha, modulning asosiy xususiyatlari – dinamiklik, moslashuvchanlik va ta'limni individuallashtirish imkoniyati – o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan



birga, pedagogik texnologiya kafolatli natija va boshqaruvchanlikni ta'minlovchi konsept sifatida talqin qilinadi .

Mazkur nazariy qarashlarni davom ettirgan M.Yu. Oleshkov (2005), pedagogik texnologiyalarni tasniflash muammosini alohida o'rganadi. U metodika va texnologiya tushunchalari o'rtasidagi farqlarni aniqlab, metodika ustozning shaxsiy tajribasi va mahoratiga tayanishini, texnologiya esa algoritmgaga asoslangan, natijasi oldindan kafolatlangan model bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, muallif modulli-blokli va integral texnologiyalarni zamonaviy didaktik yondashuvlar sifatida ajratib ko'rsatadi .

Keyingi bosqichda A.V. Aganov va hammualliflari (2015) modulli ta'limni bevosita amaliyot nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadilar. Ularning fikricha, modul tizimi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ham ta'minlaydi. Bundan tashqari, modulli ta'limning muhim afzalligi – o'quvchilarda motivatsiyani oshirishi va faol metodlarni (muammoli ma'ruzalar, rolli o'yinlar, munozaralar) qo'llash imkonini berishidir [Aganov va b., 2015, 56–58].

Shu jarayonda E.I. Ananyeva (2006) “modul” tushunchasining ko'p qirraliligini keng qamrovda tahlil qiladi. Turli olimlarning yondashuvlarini qiyoslar ekan, u P.A. Yutsyavichene tomonidan modul “o'quv paketi” sifatida, A.A. Verbitskiy tomonidan esa “faoliyat moduli” sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi. S.I. Samygin esa modulni kursning mantiqan yakunlangan bo'limi deb izohlaydi. Shunday qilib, Ananyevaning ta'kidlashicha, modulli ta'limning o'ziga xos xususiyatlari – moslashuvchanlik, individuallashtirish va o'quvchiga erkinlik berish bo'lib, bunda o'qituvchi ko'proq yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi vazifasini bajaradi .



Shunday qilib, ko'rib chiqilgan ilmiy manbalar modul texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini turli qirralardan yoritadi. Kachura N.E. nazariy konsepsiyani ishlab chiqqan bo'lsa, Oleshkov M.Yu. tasnifiy mezonlarni aniqlab bergan, Aganov A.V. va hammualiflari (Nefed'ev L.A., Nizamova Je.I., Garnaeva G.I.) uni kompetensiyaga yo'naltirilgan amaliyotda sinab ko'rsatgan, Ananyeva E.I. modulning mazmuniy ko'p qirraliligini ochib bergan. Mazkur ilmiy qarashlar natijalarini tarjima faoliyatiga tatbiq etish, xususan yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish jarayonida bosqichma-bosqich modul yondashuvini qo'llash, mazkur metodikaning samaradorligini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogika fanida modulning mohiyatiga berilgan izohlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar uni butun didaktik tizimning ajralmas qismi sifatida baholaydilar; uni bilmasdan turib didaktik tizim samarali ishlamaydi. Mazmun jihatidan u to'liq va mantiqan yakunlangan blok hisoblanadi. Tuzilmaviy jihatdan modul o'zining o'quv elementlari (O'E) majmuasidan tashkil topadi. An'anaviy modul 7 ta o'quv elementidan iborat bo'ladi. O'E-0 – modulning maqsadlari qayd etiladi, ya'ni talaba modul ustida ishlash jarayonida nimalarga erishishi kerakligi belgilanadi.

O'E-1 – o'tilgan materialni tekshirish. Bu bosqichda talabalar bilim va ko'nikmalarining modul ustida ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun kirish nazorati o'tkaziladi. Zarurat tug'ilganda bu yerda bilimlarni tegishli tarzda tuzatish mumkin.

O'E-2,3,4,5 – o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash. Har bir o'quv elementi yakunida albatta joriy va oraliq nazorat o'tkaziladi (bu yumshoq nazorat – o'zini-o'zi nazorat qilish, namunalar bilan solishtirish shaklida bo'lishi mumkin).



Joriy va oraliq nazoratning maqsadi – o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni zudlik bilan bartaraf etishdir.

O‘E-6 – xulosa. Bu bosqichda asosiy mazmunni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati yaratiladi. (Umumlashtirish faqat og‘zaki shaklda emas, balki taqqoslovchi tavsiflar, grafiklar, diagrammalar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.)

O‘E-7 – yakuniy natijalar chiqarish. Bu bosqichda yakuniy nazorat o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat modulni o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mazkur modul tuzilmasi faqatgina namunaviy hisoblanadi, u o‘qitilayotgan mavzu, auditoriya tayyorgarlik darajasi va o‘qituvchining ijodiy yondashuviga qarab o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, tarjima faoliyati jarayoniga tatbiq etilayotgan modulli yondashuv ham nazariy asos bilan cheklanib qolmay, balki amaliy bosqichlarga tayanadi.

Shu nuqtayi nazardan, quyida keltirilgan bosqichlar tizimi talabalarda tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi (1.3.1-jadval). Mazkur jadval modul pedagogik texnologiyasining izchillik, bosqichlilik va nazorat tamoyillariga asoslanib ishlab chiqilgan bo‘lib, tarjima kompetensiyasini shakllantirishni tizimli jarayon sifatida ko‘rsatadi (1.3.1 Jadval):

1.3.1-jadval. Modul asosida tarjima kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
1-bosqich: Kirish tahlili	Matn mavzusi, janri va konteksti aniqlanadi; tarjima vazifasi belgilanadi.



2-bosqich: Leksik-semantik tahlil	Kalit soʻzlar, terminlar, sinonimlar, frazeologik birliklar tahlil qilinadi.
3-bosqich: Grammatik-sintaktik tahlil	Gap tuzilishi, zamonlar, bogʻlovchilar va sintaktik elementlar koʻrib chiqiladi.
4-bosqich: Terminologik muvofiqlik	Madaniy jihatdan mos ekvivalentlar tanlash.
5-bosqich: Tarjima varianti ishlab chiqish	Matn tarjima qilinadi, mazmun va uslub saqlanadi, muqobil variantlar ishlab chiqiladi.
6-bosqich: Tahrir va yakuniy koʻrinish	Tarjima tekshiriladi, grammatik, uslubiy va orfografik xatolar tuzatiladi.
7-bosqich: Refleksiya va baholash	Talaba tarjimani tahlil qiladi, oʻzini baholaydi, xatolar ustida ishlaydi.

1.3.1 jadvalda B1 darajadagi talabalarda tarjima kompetensiyasini shakllantirish uchun modul pedagogik texnologiyasiga asoslangan bosqichlar tizimli tarzda yoritilgan. Har bir bosqich oʻziga xos didaktik vazifani bajaradi va umumiy oʻquv maqsadiga xizmat qiladi. Modul asosidagi bunday bosqichma-bosqich yondashuv talabalarda yozma tarjima koʻnikmalarini izchil shakllantirish, matnni lingvistik, semantik, grammatik va madaniy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Eng muhimi, bu jarayon nafaqat til birliklarini oʻzlashtirishni, balki tarjima faoliyatida madaniy kontekstni anglash, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv fikrlashni ham taqozo etadi. Shu tariqa modul texnologiyasi talabaning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uygʻunlashtirib, professional tarjimon sifatida shakllanishiga samarali zamin yaratadi.



Mazkur nazariy mulohazalarni amaliyotda sinab ko'rish esa o'quv jarayonida real matnlar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu misollar o'quv dasturi doirasida tanlab olingan bo'lib, ular talabalarda til va madaniyat uyg'unligini chuqurroq anglashga yordam beradi hamda tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, quyidagi parchalar modul asosida amaliy mashqlar sifatida qo'llanilishi mumkin:

中国人常说：“吃苦耐劳的人，会有光明的未来。”

Zhōngguó rén cháng shuō: “Chīkǔ nàiláo de rén, huì yǒu guāngmíng de wèilái.”
(Xitoyliklar ko'pincha: “Mehnatga chidamli va sabrli inson yorqin kelajakka ega bo'ladi”, – deb aytadilar.)

1.3.2 Jadval. Modul asosida yozma tarjima jarayonining bosqichlari (misol asosida)

Bosqich	Mazmuni	Amalga oshirish	Natija
1. Kirish tahlili	Matn janri: maqol, xalq hikmati. Kontekst: xitoy xalqining qadriyatlari – mehnatsevarlik, sabr-toqat, kelajakka ishonch.	Talabalar matn janri va madaniy vaziyat bilan tanishtiriladi.	Tarjima vazifasi aniqlanadi – mazmunni saqlash va madaniy xabarni o'zbekchaga o'tkazish.
2. Leksik-semantik tahlil	Tayanch so'zlar: 吃苦 (mehnatga chidash), 耐劳 (mehnatsevarlik), 光明的未来 (yorqin kelajak). Sinonimlar: 吃苦 = 忍耐, 光明 = 美好.	Lug'at bilan ishlash, sinonimlarni solishtirish.	Kalit birliklarning semantik ma'nosi aniqlanadi.



3. Grammatik-sintaktik tahlil	中国人常说 – oddiy gap; 吃苦耐劳的人 aniqlovchi konstruktsiya; 会有光明的未来 – predikativ qism, kelasi zamon.	Gap bo'laklarini grammatik tahlil qilish.	Gapning grammatik tuzilishi aniqlanadi va o'zbekchaga mos sintaktik qurilish tanlanadi.
4. Terminologik muvofiqlik	吃苦耐劳 → “mehnatga chidamli va sabrli”; 光明的未来 → “yorqin kelajak”.	Madaniy jihatdan mos ekvivalentlar tanlash.	Leksik va madaniy moslik ta'minlanadi
5. Tarjima varianti ishlab chiqish	Dastlabki variant: “Xitoyliklar ko'pincha: mehnatga chidamli va sabrli odam yorqin kelajakka ega bo'ladi, – deb aytadilar.”	Talaba tarjimini dastlabki ko'rinishda yozadi.	Asosiy mazmun o'zbek tiliga ko'chirildi.
6. Tahrir va yakuniy ko'rinish	Uslubiy jihatdan yaxshilangan variant: “Xitoy xalqida shunday hikmat bor: ‘Mehnatga chidamli va sabrli inson yorqin kelajakka ega bo'ladi’.”	Tahrir qilish, uslubiy uyg'unlashtirish.	Yakuniy tarjima shakli hosil qilinadi.
7. Refleksiya va baholash	Talaba tarjimada madaniy jihatdan muhim ifodalarni tanlay olganmi? To'g'ri ekvivalent topilganmi?	O'z-o'zini baholash, o'qituvchi va guruhli muhokama.	Tarjima natijasi mustahkamlanadi, madaniy moslikka e'tibor qaratiladi.



Mazkur misol tahlili shuni ko'rsatadiki, modul pedagogik texnologiyasi asosida yozma tarjimani o'rgatish jarayoni madaniy va tarbiyaviy omillarni ham integratsiyalashgan tarzda qamrab oladi. Talabalar ushbu maqolni tarjima qilish bosqichida tayanch tushunchalarni aniqlash, ularning semantik va madaniy ma'nosini ochib berish, mos ekvivalentlarni tanlash va yakuniy tarjimani uslubiy jihatdan to'g'ri shakllantirishni o'rganadilar.

Dissertatsiyaning mazkur bobida B1 darajadagi talabalarda yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish uchun tuzilgan pedagogik modul bosqichidan boshqa misollar keltirilgan (Ilova 1).

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, modul texnologiyasi asosida maqolni bosqichma-bosqich tahlil etish jarayoni lingvistik ko'nikmalar bilan bir qatorda tarbiyaviy va madaniy kompetensiyalarni ham shakllantirishga xizmat etadi. Modul pedagogik texnologiyasi asosida tuzilgan bosqichli tarjima jarayoni talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish va professional tarjimon sifatida shakllanishlariga imkon yaratadi. Har bir bosqichda aniq didaktik vazifa va natijaga yo'naltirilganlik — modul texnologiyasining o'ziga xos pedagogik afzalligi hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, modul pedagogik texnologiyasi asosida yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirishga doir olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar mazkur metodikaning samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu pedagogik texnologiya talabalarda nafaqat chuqur va ongli, balki tizimli tarjima ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, modul asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati talabalarning individual sur'atda ishlashiga, mustaqil va refleksiv fikrlash malakalarini rivojlantirishga, tahliliy yondashuvga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Eng asosiysi, mazkur yondashuv tarjima faoliyatining lingvistik jihatlaridan tashqari, uning kommunikativ, madaniy va kognitiv o'lchovlarini ham chuqur anglashni ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Аганов А.В., Нефедьев Л.А., Низамова Ж.И., Гарнаева Г.И. Педагогическая технология и модульное обучение как факторы развития высшего педагогического образования // Казанский педагогический журнал. – 2015. – №1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/654321>
2. Ананьева Е.И. Модульное обучение студентов как педагогическая проблема // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2006. – №4. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/987654>
3. Габдулина, А. Методика обучения переводческой компетенции (письменному переводу) студентов бакалавров. — СПб.: РГПУ им. А. И. Герцена, 2020. — 76 с.
4. Гальковская, И. В. Самостоятельная познавательная деятельность учащихся в системе модульного обучения. — Москва, 1996. — 45 с.
5. Олешков М.Ю. Педагогическая технология: проблема классификации и реализации // Казанский педагогический журнал. – 2005. – №2. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/123456>
6. Полатовна Б.Н. Модульная технология обучения глагольной лексике английского языка учащихся уровня B1 Республики Каракалпакстан //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 11.;
7. Комиссаров, В. Н. Современное переводоведение. — Москва: Наука, 1990. — 253 с.
8. <http://searchworks.stanford.edu/view>
9. <http://www.ziyonet.uz>